XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA BIRINCHI MARTA QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Imamova Nasiba Muzafarovna
«International School of Finance Technology and Science»
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasi PhD Dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.15270141

Annotasiya. *Ushbu maqolada korxona tomonidan Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (XMHS) birinchi marta o'tish jarayonining asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, XMHSga o'tishda yuzaga keladigan moliyaviy, texnologik va boshqaruv jarayonlari, ularning korxona moliyaviy natijalar ko'rsatkichlariga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida "ABC" kompaniyasi misolida XMHSga o'tishdan oldingi va keyingi moliyaviy ko'rsatkichlar taqqoslab tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, XMHSning joriy etilishi moliyaviy shaffoflik, investitsion jozibadorlik va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini oshiradi.*

Kalit so'zlar:*XMHS, investor,moliyaviy hisobot, daromad, xarajat, risklarni boshqarish,moliyaviy samaradorlik*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются основные особенности первого перехода предприятия на Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО). В частности, анализируются финансовые, технологические и управленческие процессы, возникающие при переходе на МСФО, а также их влияние на показатели финансовых результатов предприятия. В ходе исследования были сравнительно проанализированы финансовые показатели до и после перехода на МСФО на примере компании «ABC». Результаты анализа показывают, что внедрение МСФО способствует повышению финансовой прозрачности, инвестиционной привлекательности и эффективности принятия управленческих решений.*

Ключевые слова: *МСФО, инвестор, финансовая отчетность, доход, расход, управление рисками, финансовая эффективность*

Annotation.*This article analyzes the main features of the process of a company's first-time adoption of International Financial Reporting Standards (IFRS). In particular, it examines the financial, technological, and managerial processes that arise during the transition to IFRS, and their impact on the company's financial performance indicators. During the study, the financial indicators before and after the adoption of IFRS were comparatively analyzed using the example of the "ABC" company. The analysis results show that the implementation of IFRS increases financial transparency, investment attractiveness, and the ability to make effective management decisions.*

Keywords: *IFRS, investor, financial reporting, income, expense, risk management, financial efficiency*

Kirish

Global iqtisodiy integratsiya sharoitida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ga o'tish har bir kompaniya uchun muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, xorijiy investorlar bilan

hamkorlikda faoliyat olib boruvchi va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi kompaniyalar uchun moliyaviy hisobot xalqaro standardlari bo‘yicha hisobot yuritish zaruratga aylanmoqda. Bu jarayonni to‘g‘ri va tizimli tashkil qilish uchun MHXS 1 – “Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini birinchi marta qo‘llash” standarti maxsus ishlab chiqilgan. Uning asosiy maqsadi – korxonaga birinchi marta IFRS asosida moliyaviy hisobot tuzish jarayonida aniq yo‘riqnomalarni taqdim etishdir. Standart kompaniyaga o‘zining oldingi moliyaviy holatini aniq va ishonchli tarzda aks ettirish, shuningdek, moliyaviy hisobt xalqaro standarti bilan uyg‘unlashgan kirish balansini tuzishni talab qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) birinchi marta o‘tish jarayoni– bu kompaniyaning mavjud milliy buxgalteriya standartlaridan xalqaro standartlarga o‘tishida amalga oshiriladigan kompleks bosqichdir. Bu jarayon IFRS 1 – “First-time Adoption of International Financial Reporting Standards” standarti orqali tartibga solinadi. Kompaniyalar tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobot va xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini birinchi marta qo‘llash bo’yicha bir qator ilmiy izlanishlarda ko’rishimiz mumkin. Lenormand va Touchais (2009) moliyaviy hisobotlarda taqdim etiladigan ma’lumotlar bozor sharoitlarini aks ettirishi kerakligini ta’kidlagan. Lepadatu va Piranu (2009) ga ko‘ra, moliyaviy ma’lumotlar almashinuvining shaffofligi samarali bozorlar uchun muhim bo‘lib, barqarorlikni ta’minlaydi. Aniq belgilangan buxgalteriya standartlari moliyaviy hisobotlarning barcha jihatlarini — tan olish, o‘lchash va taqdim etishni tartibga soladi. Eng keng qabul qilingan standartlar bu —Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari (IFRS)dir. IFRSning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarning aniqligi va taqqoslanishini ta’minlab, buxgalteriya sifatini yaxshilashdir. Ushbu standartlar moliyaviy hisobotlardagi barcha moddalarning yuritilishi bo‘yicha qat’iy qoidalar va tartiblarni belgilaydi. Sifatni oshiruvchi qo‘shimcha xususiyatlar — bu taqqoslanish, tekshirilish (ya’ni ishonchlilik), o‘z vaqtida taqdim etilish va tushunarli bo‘lishdir (IFRS Konseptual Asoslari Loyihasi, 2018). Chen va boshqalar (2010) buxgalteriya hisobi sifatini iqtisodiy holatning moliyaviy hisobotlarda qanchalik to‘g‘ri aks ettirilganligi bilan izohlashgan. Moliyaviy hisobotlar kompaniyaning iqtisodiy sharoitlarini chinakam aks ettirishi kerak….IASB 2011-yilda ushbu standartga o‘zgartirishni kiritdi, bunda foyda va zarar hisobotida “boshqa keng qamrovli daromad” (other comprehensive income) atamasi kiritildi. Ushbu o‘zgarishning maqsadi moliyaviy hisobotlarning izchilligi va ishonchliligini oshirish edi (Wiley IFRS, 2017). Yangilangan standartlar investorlarning qarorlariga ta’sir ko‘rsatdi hamda menejerlarga kompaniyaning moliyaviy natijalarini yanada samarali tarzda taqdim etish imkoniyatini berdi (Doni va boshqalar, 2017).

Tahlil va natijalar

Umumiy maqsaddagi moliyaviy –bu kompaniyadan o‘zlarining muayyan axborot extiyojlariga javob beradigan xisobot tayyorlashini talab etish imkoniyatiga ega bo‘lmagan foydalanuvchilarning extiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan moliyaviy hisobotdir. Ko‘pgina mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar va boshqa kreditorlar hisobot beruvchi tashkilotlardan ularga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot berishini talab qila olmaydilar va o‘zlariga kerakli moliyaviy ma’lumotlarning ko‘p qismida umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlarga tayanishlari shart. Shunga ko‘ra, ular umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotning asosiy foydalanuvchilari hisoblanadi. Moliyaviy hisobot biznes va iqtisodiy faoliyat bo‘yicha yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan va ma’lumotni sinchkovlik bilan ko‘rib chiqadigan va tahlil qiladigan foydalanuvchilar uchun tayyorlanadi. Birinchi marta qabul qiluvchi kompaniya – bu o'zining

umumiy maqsadli moliyaviy hisobotlarining moliyaviy hisobot xalqaro standartiga mos kelishini aniq va cheklanmagan tarzda e'lon qilgan kompaniyadir.

Agar kompaniya oldingi yil ichida ichki boshqaruv uchun moliyaviy hisobot xalqaro standartiga moliyaviy hisobotlarini tayyorlagan bo'lsa, ammo bu moliyaviy hisobot xalqaro standartiga moliyaviy hisobotlari egalariga yoki tashqi tomonlarga, masalan, investorlar yoki kreditorlarga taqdim etilmagan bo'lsa, u birinchi marta qabul qiluvchi bo'lishi mumkin. Agar oldingi yil ichida biron sababga ko'ra moliyaviy hisobot xalqaro standartiga moliyaviy hisobotlari egalariga yoki tashqi tomonlarga taqdim etilgan bo'lsa, tashkilot allaqachon moliyaviy hisobot xalqaro standartini qabul qilgan hisoblanadi va moliyaviy hisobot xalqaro standartiga IFRS1 qo'llanilmaydi.



1.Rasm MHXS 1 qo’llashda asosiy tamoyillar

Moliyaviy hisobot tashkilotning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining tartibga solingan ifodasidir. Moliyaviy hisobotning maqsadi turli foydalanuvchilar uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydali bo‘ladigan tashkilotning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul mablag‘lar harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan ta’minlashdan iboratdir. Moliyaviy hisobot, shuningdek, tashkilot rahbariyati tomonidan unga ishonib topshirilgan resurslar boshqarilishining natijalarini ham aks ettiradi. Ushbu maqsadga erishish uchun, tashkilotning moliyaviy hisoboti quyidagilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etadi:



2 rasm Moliyaviy hisobot ma’lumotlari

Moliyaviy hisobot tashkilotning moliyaviy holatini, moliyaviy natijalarini va pul mablag‘lari harakatini haqqoniy taqdim etishi lozim. Haqqoniy taqdim etish operatsiyalarning, boshqa hodisalarning va shartlarning ta’sirlarini Konseptual asosda keltirilgan aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarning ta’riflariga va tan olish mezonlariga muvofiq ro‘yi-rost taqdim etishni talab etadi. Zarur bo‘lganda qo‘shimcha ma’lumotlarni yoritib berish bilan birga MHXSlarni qo‘llash moliyaviy hisobotni haqqoniy taqdim etilishini ta’minlaydi. XMHga birinchi marta qo'llashning xususiyatlari quyidagi sohalarda aniq namoyon bo'ladi:



4 rasm. XMHga birinchi marta qo'llashning o’ziga xos xususiyatlari

XMHga o‘tish jarayonida kompaniyalar moliyaviy hisobotlarini yangi standartlarga muvofiq tarzda tayyorlashlari kerak bo‘ladi. Bu jarayonda asosiy o‘zgarishlar hisob-kitob va moliyaviy ko‘rsatkichlarning qayta hisoblanishida bo‘ladi. XMHga o‘tish kompaniyalarga yangi moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda yordam beradi, ammo bu o‘zgarishlar kompaniyalarga yangi resurslar va vaqt talab qiladi.

XMHga o‘tish bilan birga, kompaniyalar hisob-kitob tizimlarini yangilashlari va hisob siyosatiga o’zgartirishlar kerak bo‘ladi. Buning uchun yangi texnologiyalarni joriy etish zarur, chunki eski tizimlar yangi standartlarga mos kelmaydi. Bu texnologik moslashuvlar yangi tizimlarni joriy qilish, kadrlar tayyorlash va ichki jarayonlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

XMHga o‘tish jarayonida kompaniyalar risklarni boshqarish va moliyaviy samaradorlikni oshirish uchun yangi usullarni qabul qilishadi. Bu jarayonlar moliyaviy ko‘rsatkichlar va nazorat tizimlarining shaffofligini ta'minlashga yordam beradi. Biroq, XMHga o'tish ba'zi risklarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki yangi standartlarga moslashish jarayonida kompaniyalar noaniqliklar va qo‘shimcha xarajatlarni boshdan kechirishi mumkin.

XMHga o‘tish uchun huquqiy asoslar yaratish zarur. Shuningdek, kompaniyalar yangi moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda amaldagi qonunlar va qoidalar bilan moslashtirilgan muvofiq metodologiyalarni ishlab chiqishlari kerak. Bu jarayonning huquqiy asoslari va amaliy yondashuvlari bo‘yicha o‘zgartirishlar, ko‘p holatlarda yangi qonunlar va tizimlarni yaratishga olib keladi.

XMHga birinchi marta o‘tish ko‘plab kompaniyalar uchun murakkab jarayon bo‘lishi mumkin, chunki bu o‘zgarishlar nafaqat hisobotlarni tayyorlash metodologiyasini, balki kompaniya ichki texnologiyalarini, huquqiy tizimlarini va moliyaviy hisob-kitoblarning barcha qismlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

"ABC" nomli kompaniya misolida XMHga birinchi marta qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlarini ko’rib chiqamiz. Kompaniya o‘z faoliyatini milliy standartlarga asoslanib olib borgan va XMHga o‘tish jarayonida qanday qanday strategiyalarni qo‘llaganligi keltirib o’tilgan.

. "ABC" kompaniyasining XMHga birinchi marta qo‘llash jarayoni moliyaviy hisobotlarni yangilash va texnologik moslashuvni talab qildi. XMHga o‘tish jarayoni, shuningdek, kompaniyaning risklarni boshqarish tizimini yanada samarali qilishga yordam berdi. Bu jarayon o‘zining qiyinchiliklari va o‘zgarishlarini keltirib chiqarsa-da, natijada kompaniya moliyaviy shaffoflik va samaradorlikni oshirishga muvaffaq bo‘ldi. XMHni muvaffaqiyatli joriy etish uchun kompaniyalar texnologik, metodologik va huquqiy moslashuvlarga tayyor bo‘lishlari kerak. Quyida kompaniya ko’rsatkichlarini xalqaro moliyaviy hisobot asosida tayyorlangandan keyingi ayrim ko’rsatkichlardagi o’zgarishlarni ko’rishimiz mumkin.



5 rasm Kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlari (XMHga o'tishdan oldin va keyin)

Daromadlar XMHga o'tishdan keyin 20% ga oshganini ko'rishimiz mumkin. Bu XMHga o'tish jarayonida kompaniya yangi standartlar bo'yicha hisobot taqdim etishda samaradorlikni oshirgani va yaxshilangan moliyaviy strategiyalari orqali ko'proq daromad ishlab chiqqanligini anglatadi. Sof foyda XMHga o'tish bilan 50% ga oshdi. Bu XMHning ko'proq shaffoflikni ta'minlaganligini va yanada samarali xarajatlarni boshqarish imkoniyatini yaratganini ko'rsatadi. Naqd pul oqimlari 2 baravarga oshgani, kompaniya yangi hisob-kitob metodologiyalari yordamida naqd pul oqimlarini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'lganligini ko'rsatadi.



6 rasm Kompaniya risklarini boshqarish ko'rsatkichlari (XMHga o'tishdan oldin va keyin)

XMHga o'tish orqali kompaniya risklarni boshqarishning samaradorligini oshirdi, masalan, moliyaviy risklar 25% dan 15% ga kamaydi. Bu yangi metodologiyalar va hisobot tizimlari orqali noaniqliklarni boshqarishda kompaniya yutuqlarga erishdi. Bozor risklari ham

XMHga o‘tishdan keyin sezilarli darajada kamaydi, bu kompaniyaning bozorni o‘rganish va risklarni baholashda yanada samarali yondashuvlarni ishlab chiqqanini ko‘rsatadi.

Xulosa

IFRS 1 standarti moliyaviy shaffoflikni oshirish va xalqaro taqqoslanadigan hisobotlarni yaratishda muhim vositadir. Dastlabki balansning to‘g‘ri tuzilishi, barcha aktiv va majburiyatlarning qayta baholanishi va ularning farqlarini aniqlash kompaniyaga investorlarga ishonchli ma’lumot taqdim etish imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan kompaniyada ham XMHga o‘tish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirildi, ammo bu jarayonning o‘ziga xos qiyinchiliklarga ham duch kelingan. Natijada kompaniya quyidagi natijalarga erishdi:

-Moliyaviy shaffoflikning oshishi: XMHga o‘tish natijasida kompaniya moliyaviy hisobotlarining aniq va shaffof bo‘lishi ta'minlandi. Bu esa investorlar va kreditlar uchun osonroq qarorlar qabul qilish imkonini berdi.

-Samaradorlikning oshishi: Kompaniya yangi hisob-kitob metodologiyalari va texnologiyalarni qo‘llash orqali moliyaviy samaradorligini oshirdi.

-Kadrlar malakasining oshishi: XMHga o‘tish jarayonida kompaniya xodimlarini yangi tizimlar va metodologiyalar bo‘yicha malaka oshirishga muvaffaq bo‘ldi.

Yuqoridagi jarayonlardan kelib chiqib ta’kidlash joizki IFRS 1 Birinchi Marta Xalqaro Moliyaviy Hisoboti Standartlarini qabul qilish, bir tashkilotning o'zining umumiy maqsadli moliyaviy hisobotlarini tayyorlash uchun IFRSni birinchi marta asos sifatida qabul qilganda amalga oshirishi kerak bo'lgan tartib-qoidalarni belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. **IASB (International Accounting Standards Board). (2023).** *International Accounting Standard 1: Presentation of Financial Statements*. **https://www.ifrs.org**
2. Lepadatu G and Piranu M (2009), “Transparency in Financial Statements (IAS/IFRS)”,European Research Studies, Vol. 12, No. 2, pp. 102-108
3. Lenormand G and Touchais L (2009), “Do IFRS Improve the Quality of Financial Information? A Value Relevance Approach”, Comptabilité – Contrôle – Audit, Vol. 15, No. 2, pp. 145-164.
4. . Chen H, Tang Q, Jiang Y and Lin Z (2010), “The Role of International Financial Reporting Standards in Accounting Quality: Evidence from the European Union”, Journal of International Financial Management and Accounting, Vol. 21, No. 3, pp. 1-57.
5. . Doni F, Rossetti S and Verona R (2017), “Performance Reporting Choices after the Adoption of IAS 1 Revised: Comparative Evidence from Europe and the USA”, International Journal of Economics and Financial Issue, Vol. 7, No. 4, pp. 558-574.
6. Имамова Н М. Киличева Ф Б Особенности трансформации отчетности по МСФО В Республике Узбекистан научно-аналитический журнал наука и практика …, 2022
7. Имамова Н М. Киличева Ф Б INTERNATIONAL EXPERIENCE WITH IFRS AND ITS IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN 2022/3/12 World Economics and Finance Bulletin 70 74
8. Имамова Н М. . Организация консолидированного учетного учета и отчетности на основе международных финансовых стандартов Iqtisodiyot va ta’lim, 2022